ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Tar.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI

SHOMUROTOV SHAROFIDDIN SHUKURJON O‘G‘LI

O‘ZBEKISTONDA IRRIGATSIYA-MELIORATSIYA ISHLARI TARIXI (1991-2021-yillar)

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Andijon – 2026

UO‘K: 94(575.1):631.6“1991/2021”

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Shomurotov Sharofiddin Shukurjon o‘g‘li
O‘zbekistonda irrigatsiya-melioratsiya ishlari tarixi (1991-2021-yillar)..... 3

Шомуротов Шарофиддин Шукуржон угли
История ирригационных и мелиоративных работ в Узбекистане (1991-2021 гг.)…….....27

Shomurotov Sharofiddin Shukurjon ogli
The history of irrigation and land reclamation works in Uzbekistan (1991-2021).....55

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 60

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Tar.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI

SHOMUROTOV SHAROFIDDIN SHUKURJON O‘G‘LI

O‘ZBEKISTONDA IRRIGATSIYA-MELIORATSIYA ISHLARI TARIXI (1991-2021-yillar)

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Andijon – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.3PhD/Tar553 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qo‘qon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasiga (http://kengash.adu.uz/tarix/) va “ZiyoNET” axborot-ta’lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Komilov Oybek Kamilovich** tarix fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Rasulov Baxtiyor Maxmudjonovich** tarix fanlari doktori, professor
	Bobojonova Dilorom Bobojonovna tarix fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Z.M.Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Tar.07.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «28» 11 soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 170100, Andijon shahar, Universitet ko‘chasi, 129-uy. Andijon davlat universitetining Tarix fakulteti binosi, 1-qavat, 108-auditoriya. Tel.: (0374) 225-73-21; faks: (0374) 225-73-21; e-mail: agsu_info@edu.uz Andijon davlat universiteti).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2658A raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahar, Universitet ko‘chasi, 129-uy. ARM binosi).Tel.: (0374) 225-84-33; Faks: (0374) 225-88-30.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «04» 11 kuni tarqatildi.
(2026-yil «03» 11 dagi 53 - raqamli reyestr bayonnomasi)

R.T. Shamsutdinov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor

M.O. Alixojiyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, tarix fanlari nomzodi, dotsent

S.A.Xoshimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish tobora takomillashib borayotgan aynan XXI asrda jahon suv xo‘jaligini takomillashtirish hamda tizimni eng so‘nggi rusumli texnikalar bilan jihozlash va u orqali yer yuzida ro‘y berayotgan suv tanqisligi muammosini oldini olishga e’tibor tobora kuchayib bormoqda. Zero, globallashuv jarayonlari asta-sekin kuchayib borayotgan hozirgi davrda qator mamlakatlarda ichimlik suvi taqchilligini oldini olishda va unga oqilona yechim topishda irrigatsiya-melioratsiya obyektlaridan to‘g‘ri hamda maqsadli foydalanishni taqozo qilmoqda.

Bugungi kunda dunyoning ko‘plab ilmiy-tadqiqot institut va markazlarida, xususan, Suv xo‘jaligi boshqarmasi (DWM)[1] va Suv texnologiyalari markazi (WTC)[2] tomonidan suv manbalarining mavjudligi va uni muntazam tozalash, suv xo‘jaligini samarali boshqarish hamda raqamlashtirish, suv sifati va uning salomatlik, atrof-muhit bilan o‘zaro aloqasini yaxshilash, irrigatsiya tizimini texnologiyalashtirish va jadallashtirish, suv resurslaridan samarali hamda tejamli foydalanish bo‘yicha muhim izlanishlar amalga oshirilmoqda.

Mustaqillik sharoitida O‘zbekistonda suv xo‘jaligi tizimini taraqqiy ettirish, uning moliyaviy ta’minoti va moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Respublika Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev suv xo‘jaligini modernizatsiyalashda quyidagi jihatlarga jiddiy e’tibor qaratish kerakligiga to‘xtalib o‘tdi: “Sohani modernizatsiyalashda suv resurslarini boshqarish, suvdan tejamkorlik bilan foydalanish va gidrotexnik inshootlarning texnik holatini yaxshilash va xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan istiqbolli loyihalarni xalqaro loyiha institutlarining mablag‘lari hisobidan qo‘llab-quvvatlash zarur”[3]. Shu boisdan 1991–2021-yillarda O‘zbekistonda irrigatsiya-melioratsiya tizimini taraqqiy ettirish maqsadida mahalliy byudjet va nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan yirik hajmda kapital mablag‘lar ajratildi, natijada tizimga suvni va nasos stansiyalaridan foydalanishda elektr-energiyani tejaydigan zamonaviy texnologiyalar joriy qilindi. Ana shu sug‘orish tadbirlarini maxsus ilmiy-tadqiqot sifatida tarixiylik nuqtai nazaridan o‘rganish bugungi kunda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga molikdir.

O‘zbekiston Prezidentining 2017-yil 16-noyabrdagi PF-5241-son “Suv ta’minoti va suv chiqarish xizmati ko‘rsatish sohasida to‘lov intizomini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 12-fevraldagi PF-5330-son “Qishloq va suv xo‘jaligini davlat tomonidan boshqarish tizimini tubdan takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonlari va Respublika Prezidentining 2018-yil 17-apreldagi PQ-3672-son “O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 6-apreldagi PQ-5055-son “O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari

[1] Directorate of Water Management (DWM). – URL: https://tlsgroup.co.in/dwm/index.html
[2] The Water Technology Centre (WTC). – URL: https://tnau.ac.in/site/wtc/about-directorate/
[3] Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: O‘zbekiston, 2021. – Б.166.

to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mamlakat suv xo‘jaligi tizimiga doir amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Mavzuning o‘rganilish darajasi. Dissertatsiya mavzusiga doir amalga oshirilgan barcha tadqiqot ishlarini ikki guruhga bo‘lish maqsadga muvofiq:

1. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston irrigatsiya tizimi bo‘yicha yaratilgan tadqiqotlar;

2. Xorij olimlari tomonidan mavzuga doir chop etilgan izlanishlar.

*Birinchi guruh*ga mansub adabiyotlarni tarixchi, texnik, geograf, iqtisodchi olimlarning mavzuga doir ishlari tashkil qiladi va ularni fanlararo tahlil qilish maqsadga muvofiq. Mustaqillik sharoitida tarixchi-olimlardan A.Razzaqov, Q.Nasritdinov, O.Komilov, G‘.Haydarov, U.Axmedova, J.Olimov, B.Isxakov, D.Norkuziyev, G‘.Raxmonovlarning tadqiqotlarida [4] O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi tizimi tarixi, uning isloh qilinishi bo‘yicha joylarda o‘tkazilgan sa’y-harakatlar, suvni muqaddas unsur sifatida o‘tmish davrlardan e’zozlanib kelinganligi, irrigatsiya-melioratsiyani rivojlantirishga mablag‘lar sarflanishining asta-sekin o‘sib borishi, suvni tejaydigan agrotexnologiyalardan mamlakatning qishloq xo‘jaligida samarali foydalanilishi va uning aksariyat holatlarda ijobiy natija berganligi, yirik suv inshootlarining rekonstruksiya qilinishi, ularning suv o‘tkazish qobiliyati va texnik holati, tizimda xorijiy tajribalarning qo‘llanilishi, irrigator-meliorator kadrlar tayyorlash tizimidagi o‘zgarishlar, mutaxassislar sonining yil sayin ortib borishi hamda sohani rivojlantirishga doir qabul qilingan hukumat qaror va farmonlari tarixiylik nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

Texnika sohasining tadqiqotchilaridan F.Shoxxo‘jayev, R.Xusanov, I.Rafikov, Z.Artukmetov, M.Xamidov, A.Mamataliyev, O.Shermatovlarning izlanishlarida asosan mamlakat suv xo‘jaligi tashkilotlarining mustaqillik yillaridagi faoliyati, suv obyektlarining texnik holati, irrigatsiya-melioratsiya ishlarining tarixiy rivojlanish bosqichlari, suvdan foydalanuvchilar uyushmalari

[4] Раззоқов А.А. Сув ва ҳаёт. – Тошкент: Меҳнат, 1991. – 152 б.; O‘sha muallif. Мелиорация: миш-миш ва ҳақиқат // Ҳаёт ва иқтисод. – Тошкент, 1992. – №1. – Б.28-30; O‘sha muallif. Ўзбекистон пахтачилиги тарихи: (Ўтмиш ва ҳозир). – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – 304 б.; Насритдинов Қ.М. Наманган воҳасининг суғорилиши тарихидан // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – Тошкент, 2000. – №3. – Б.33-37; Комилов О., Хайдаров Ғ. Ўзбекистонда суғориш тизими модернизацияси тарихидан // Илмий хабарнома. – Андижон, 2020. – №1 (45). – Б.49-58; Akhmedova U.M. Agrarian Reforms In The Field Of Agriculture In Uzbekistan. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research. – USA, 2020. 2(11). – P.72-75; Олимов Ж.Б. Ўзбекистонда ўрмон хўжалигининг шаклланиши ва ривожланиши тарихи (1917 – 2020 йиллар): Тарих фан. фалс. док (PhD). ... дисс. автореф. – Фарғона, 2022. – 50 б.; Isxakov B.B. Farg‘ona vodiysi o‘zbeklarining an’anaviy ekologik madaniyati (tarixiy-etnologik tadqiqot): Tarix fan. fals. dok (PhD). ... diss. avtoref. – Farg‘ona, 2023. – 54 b.; Norkuziyev D.R. Farg‘ona vodiysi ekologiyasi holati va uning ijtimoiy muammolari (1991 – 2021-yillar): Tarix fan. fals. dok (PhD). ... diss. avtoref. – Farg‘ona, 2023. – 52 b.; Raxmonov G‘.A. Farg‘ona vodiysida suv xo‘jaligi tizimining modernizatsiyasi tarixi (1991–2018-yillar): Tarix fan. fals. dok (PhD). ... diss. avtoref. – Farg‘ona, 2026. – 62 b.

tomonidan o‘tkazilgan sug‘orish va yerga ishlov berish tadbirlari hamda uning natijalari, ekin maydonlarini muntazam sug‘orish uchun yirik gidroinshootlarning qurilishi, qishloq xo‘jaligida yer hamda suv resurslaridan oqilona va tejamli foydalanishning eng maqbul usul ekanligi, suv manbalaridan samarali foydalanishning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashdagi o‘rni, paxtachilikda hosildorlikni orttirish irrigatsiya va yerlarga ishlov berish tadbirlari bilan uzviy bog‘liq ekanligi masalalari ilmiy adabiyotlar hamda statistik materiallardagi ma’lumotlar yordamida tahlil qilingan[5].

Geograf olimlardan E.Soliyev, A.Baratov, Yu.Ahmadaliyevlarning ishlari[6] respublikada yer-suv resurslaridan foydalanilishi, iqlim o‘zgarishlarining suv resurslariga o‘zaro ta’sir o‘tkazishi, Farg‘ona vodiysi suv resurslarining bugungi kundagi holati va ulardan oqilona foydalanish jihatlari, Namangan viloyati suv xo‘jaligi va uni rivojlantirish omillari, tizimdagi o‘tkazilgan islohotlar, suv manbalaridan samarali foydalanishning davlatlararo yo‘nalishi hamda uning muhim xususiyatlari, qishloq xo‘jaligida kam suv talab qiladigan donli ekinlardan jo‘xorining turli hududlarda ekishning eng ko‘p tarqalganligi hamda uning suv tanqisligi muammosini oldini olishda muhim ahamiyatga ega ekanligi tarixiy manbalar va fanga doir ilmiy adabiyotlar yordamida ochib berilgan.

Iqtisodchi-olimlardan I.Ahmedov, A.Prenov, A.G‘ofurov, R.Begmatov, O.G‘ofurov, Sh.Muminov, A.Salillayev, T.Ismailovlarning tadqiqotlarida O‘zbekiston Respublikasida yer-suv resurslaridan samarali foydalanish va uning iqtisodiy jihatlari, mamlakatda suvdan foydalanuvchilar sonining ortib borishi barobarida suvdan foydalanish tizimi tobora murakkablashib borayotganligi, havza tizimida suvdan foydalanishni takomillashtirish, resurs tejovchi texnologiyalarni hamda suvdan foydalanishda bozor mexanizmlarini joriy etish, respublikadagi yirik irrigatsiya inshootlari, Farg‘ona vodiysi sug‘orish tizimi tarixi, Katta Farg‘ona magistral kanali qurilishi, mintaqada hozirgi davrda vujudga kelgan suv tanqisligining oldini olinishi, bu muammoni xalqaro miqyosda hal etish yo‘llari va

[5] Шоҳўжаев Ф.З. Мелиорация фондларида мулкдорлик // Иқтисод ва ҳисобот. – Тошкент, 1998. – №1. – Б.30-31; O‘sha muallif. Аграр ислоҳотнинг муҳим бўғини // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. – Тошкент, 2002. – №5. – Б.31-32; O‘sha muallif. Сувдан фойдаланувчилар уюшмалари томонидан сув ресурсларидан фойдаланиш, суғориш ишларини ташкил этиш ва кўрсатилган хизматлар учун молиявий ҳужжатларни расмийлаштириш бўйича қўлланма. – Андижон, 2006. – 19 б.; O‘sha muallif. Зилол сувдай пок бўлинг. – Андижон: Andijon nashriyot-matbaa, 2021. – 240 б.; Хусанов Р., Рафиков И. Қишлоқ хўжалигини ривожлантириш. Андижон тажрибаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2000. – 48 б.; Артукметов З.А. Сув ресурслари ва сувдан фойдаланиш. – Тошкент: Университет, 2007. – 146 б.; Xamidov M.X., Mamataliyev A. B. Irrigatsiya va melioratsiya. – Toshkent: Book media plus, 2019. – 211 b.; Шерматов О.З. Қишлоқ хўжалигида ер ва сувдан самарали фойдаланишнинг озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашдаги ўрни ва аҳамияти // Agro ilm. – Тошкент, 2020. – №1. – Б.97-98.

[6] Солиев Э.А. Шимолий Фарғона дарёлари сув ресурсларини баҳолаш // НамДУ илмий ахбороти. – Наманган, 2005. – №2. – Б.34-37; O‘sha muallif. Иқлим исиши даврида Фарғона водийси сув ресурсларини ўрганишнинг долзарблиги // Ўзбекистон география жамияти ахборотномаси. – Тошкент, 2006. – №27. – Б.56-57; O‘sha muallif. Iqlim o‘zgarishining Farg‘ona vodiysi suv resurslariga ta’siri. – Namangan: Namangan, 2021. – 144 b.; Баратов А.С. Наманган вилоятида сув хўжалигини ташкил этиш ва унинг самарадорлигини ошириш масалалари: География фан. номз. … дисс. автореф. – Наманган, 2007. – 26 б.; O‘sha muallif. Наманган вилоятида сув хўжалигини ташкил этиш ва сувдан самарали фойдаланиш. – Наманган: Наманган нашриёти, 2018. – 142 б.; Аҳмадалиев Ю.И. Ер ресурсларидан фойдаланиш геоэкологияси. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2014. – 340 б.; O‘sha muallif. Этноэкология (географик жиҳатлари). – Фарғона: Classic, 2021. – 286 б.

choralari, mamlakatda suv resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha ilmiy jihatdan asoslangan amaliy tavsiyalar berilgan[7].

Xullas, mamlakatning bir guruh fan vakillari – tarixchi, texnik, geograf va iqtisodchi olimlari O‘zbekiston irrigatsiya-melioratsiya ishlarining ayrim muammolarini yoritganlar, xolos. Mazkur ishlarda istiqlol yillarida suv omborlari, kanallar va nasos stansiyalarining barpo etilishi tarixi, ulardan sug‘orish tizimida foydalanilishi, respublika irrigatsiyasida xorijiy tajribalarning ahamiyati, tomchilatib sug‘orish tizimining joylarda tatbiq etilishi va uning afzallik jihatlari hamda natijalari atroflicha o‘rganilmaganligini yaqqol tasdiqlaydi.

*Ikkinchi guruh*ga doir tadqiqotlarda xorijiy olimlarning qishloq va suv xo‘jaligi sohalari, suv resurslarini davlatlararo taqsimlash muammolari, tomchilatib sug‘orish usulining irrigatsiya tizimidagi suvni tejashda muhim natijalar berganligi masalalariga bag‘ishlangan asarlari tashkil qiladi. O‘zbekistonda agrar islohotlar va yer huquqlari bo‘yicha tadqiqot olib borgan agrarshunos olima Deniz Kandioti izlanishlarida istiqlol yillarida mamlakat qishloq xo‘jaligida agrar qayta qurish tadbirlarining amalga oshirilishi, joylarda xo‘jalikning yangi usuli fermer xo‘jaliklari tashkil qilinishi va ularning ishlab chiqarish faoliyati, mazkur xo‘jaliklarning asosan dehqonchilik va choravachilikka ixtisoslashuvi manbalar yordamida tahlilga tortilgan[8]. Muallifning 2000–2001-yillarda Andijon va Xorazm viloyatlarida olib borgan dala ishlariga tayangan holda kichik fermer xo‘jaligi bilan bir qatorda tovar paxtachilik tarmog‘ini saqlashda gender bo‘yicha mehnat taqsimotining roli, fermer xo‘jaliklarini qayta qurishning bir qancha turlari mavjudligi hamda qo‘lga kiritilgan muhim natijalar mazkur tadqiqotlarda batafsil muhokama qilingan.

Markaziy Osiyo hududlarida joylashgan transchegaraviy suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanish masalasi Yanush-Pavletta Barbara va Mara Gubaydulinalarning[9] asosiy e’tibori markazida bo‘ldi. Mualliflarning suv resurslari bo‘yicha ta’kidlashicha, agar istiqbolda Markaziy Osiyoda suv resurslarining tanqisligi kuzatiladigan bo‘lsa hamda manbalardan davlatlar samarasiz yo‘l bilan foydalansa transchegaraviy suv resurslarini boshqarishning zaifligi kuchayib borishi muqarrardir, mazkur muammo va suv iste’moli o‘rtasidagi nomutanosiblik,

[7] Ahmedov I.A. Suv xo‘jaligi qurilishini tashkil etish, rejalashtirish va boshqarish. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010. – 272 b.; O‘sha muallif. Suv xo‘jaligi qurilishi tarixi. – Toshkent: TIMI, 2011. – 246 b.; Пренов А.Б. Ер-сув ресурсларидан самарали фойдаланишнинг ташкилий-иқтисодий асослари // Иқтисод ва молия. – Тошкент, 2014. – Б.37-42; Ғофуров А., Бегматов Р., Ғофуров О. Фарғона водийси марваридлари (Катта Фарғона магистрал канали 80 ёшда). – Фарғона: Фарғона, 2019. – 136 б.; Муминов Ш.Х. Сув хўжалиги тизимини молиялаштиришнинг хорижий давлатлар тажрибаси // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2021. – №5. – B.31-34; Салиллаев А., Исмаилов Т. Сув хўжалигида мелиоратив тизимлар ҳолатини баҳолашнинг услубий жиҳатлари // Modern science and research. – Тошкент, 2024. – №6. – Б.912-918.

[8] Deniz Kandiyoti. Agrarian Reform, Gender and Land Rights in Uzbekistan. Programme on Social Policy and Development, Paper No.11, – Geneva: UNRISD, 2002. – 79 p.; O‘sha muallif. The Cry for Land: Agrarian Reform, Gender and Land Rights in Uzbekistan // Journal of Agrarian Change. Volume 3, Issue 1-2. – London, 2003. – P.225-256; O‘sha muallif. Post-Soviet Institutional Design, NGOs and Rural Livelihoods in Uzbekistan. – Geneva: UNRISD, 2004. – 28 p.

[9] Barbara Janusz-Pawletta, Mara Gubaydulina. Transboundary Water Management in Central Asia // The Cahiers d’Asie centrale. Issue 25. – Paris, 2015. – P.195-215.

iqtisodiy va ijtimoiy beqarorlik bu mamlakatlarda global ahamiyat kasb etuvchi ekologik barqarorlikning buzilishiga olib kelishi tabiiy holga aylanishi mumkin.

Agrarshunos nemis olimi Xerman Kreutzmanning tadqiqotida[10] jahon mamlakatlarida jiddiy tus olayotgan globallashuv jarayonlarining kundan-kunga ortib, jiddiy kechayotganligi, qator dunyo davlatlarida aholi sonining o‘sishi va zavodlarning ishga tushirilishi hisobiga ichimlik suvi tanqisligining kuzatilganligi hamda ana shunday suv taqchilligi yuz berayotgan pallada O‘zbekistonda suv resurslaridan asosan oqilona, tejamli foydalanish yo‘lga qo‘yilganligi, mavjud gidrotexnika inshootlarining texnik holatini yaxshilash maqsadida ta’mirlash-tuzatish ishlari tizimli ravishda amalga oshirib kelinayotganligi, ba’zi suv obyektlarining transchegaraviy maqomga ega ekanligi sababli yaqin qo‘shni davlatlar bilan manbalarni to‘g‘ri taqsimlanganligi, mamlakatda ekin maydonlariga suv berish ishlarining azal-azaldan rivojlanganligi, sovet hukmronligi yillarida suv resurslarining haddan ziyod olinishi barobarida ba’zi hududlarda suv taqchilligi muammosining kelib chiqqanligi masalalariga tarixiylik jihatidan baho berilgan.

Tadqiqotchi Yelena Kim o‘zining asarida[11] O‘zbekiston Respublikasida suv xo‘jaligi tizimining barqarorligi, irrigatsiya-melioratsiya ishlarini rivojlantirishga hukumatning bevosita yordam ko‘rsatishi lozimligi, tizimni taraqqiy ettirishda va modernizatsiya qilishda malakali kadrlar tayyorlashni yanada kengaytirish, qishloq xo‘jaligidagi muhim islohotlardan biri sifatida fermerlik faoliyatini kuchaytirishda xotin-qizlarning tutgan o‘rni va roli, gender tengligining mamlakatning barcha sohalarida qaror topganligi, fermerlar tomonidan mahsulot tayyorlash ko‘rsatkichining yil sayin ortib borishi masalalari statistik materiallarga tayangan holda atroflicha yoritilgan.

Zamonaviy tadqiqotchi Richard Vays Markaziy Osiyo irrigatsiyasining bugungi kundagi holati hamda undagi ba’zi muammolar, shu bilan birga, O‘zbekistonda suv va suv resurslaridan oqilona foydalanish hamda uning afzalliklari, mamlakatda transchegaraviy suv resurslarini taqsimlashdagi muhim jihatlar va unda bag‘rikenglik tamoyillarining ustuvorligi, O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘zlarining hududlarida joylashgan suv obyektlari manbalaridan birinchi navbatda sug‘orish va melioratsiya maqsadlarida foydalanib kelayotganligi, mahalliy aholining ichimlik suviga bo‘lgan tabiiy ehtiyojining muntazam ravishda qondirib kelinganligi, suv resurslaridan qishloq xo‘jaligida tejamli ravishda foydalanishning maqbulligi va uning suv tanqisligi muammosining oldini olishga yetakchi ahamiyat kasb etishi, mazkur amaliyotning o‘z navbatida global masala bo‘lgan atrof-muhit muhofazasiga ko‘mak berishi atroflicha yoritilgan[12].

[10] Hermann Kreutzmann. From Upscaling to Rescaling: Transforming the Fergana Basin from Tsarist Irrigation to Water Management for an Independent Uzbekistan // Society - Water - Technology, Water Resources. – Berlin, 2016. – P.113-127.

[11] Elena Kim. Sustainability of Irrigation in Uzbekistan: Implications for Women Farmers. – London: Intech Open Book Series, 2018. – 140 p.

[12] Richard Weitz. Uzbekistan’s New Foreign Policy: Change and Continuity under New Leadership. – Washington: Central Asia-Caucasus Institute and Silk Road Studies Program, 2018. – 53 p.

Italiyalik tarixchi olim Rikardo Mario Kukkiollaning tadqiqot ishida[13] respublika, qolaversa, Farg‘ona vodiysining gidrografik holati, irrigatsiya-melioratsiya ishlarining sovet davri va mustaqillik yillaridagi ahvoli, sug‘orish tizimining afzalliklari, O‘zbekistondagi ko‘plab suv obyektlarining transchegaraviy maqomga ega ekanligi, resurslardan foydalanishda xalqaro kelishuvlarning mavjudligi hamda unga Markaziy Osiyo davlatlarining tarixiy davrlardan buyon amal qilib kelganligi, Farg‘ona vodiysining aksariyat hududi kanallar tarmog‘i bilan qoplanganligi, katta suv o‘tkazish qobiliyatiga ega bo‘lgan Katta Farg‘ona va Katta Andijon kanallarining viloyatlardagi mavjud sug‘orma yerlarni resurslar bilan ta’minlashga ko‘mak berganligi va bu jarayonlarni hozirda ham davom etib kelayotganligi tarixiy adabiyotlar hamda statistik manbalardagi materiallar yordamida tahlil qilingan.

Rimma Dankova, Martin Burton, Maxer Salman, Alan Klark, Yeva Peklarning Markaziy Osiyo irrigatsiyasining modernizatsiyasi masalasiga bag‘ishlangan tadqiqotida[14] O‘zbekiston Respublikasi irrigatsiyasida drenaj tizimi ham muhim tarmoq hisoblanganligi barobarida bu yerdagi sug‘oriladigan maydonlarning 55 foizi sho‘rlangan yoki ko‘p suvli qatlamlardan ta’sirlanganligi, ayniqsa, paxta yetishtirishda ustunlik qiladigan mamlakatning quyi oqimidagi qurg‘oqchil cho‘l qismlarida ham drenajlardan muntazam foydalanib kelinayotganligi, aksariyat sug‘orish tizimlari xo‘jalik darajasida ochiq kanalli sirt drenaj tizimlari bilan barpo etilganligi, sug‘orma maydonlarning taxminan 70-75 foizida faqatgina yer usti drenajlari mavjud bo‘lsa, sug‘oriladigan maydonlarning 15 foizida gorizontal yer osti drenaj tizimlari, qolgan 10 foizida esa chuqurligi 40 m. dan 80 m. gacha o‘zgarib turadigan vertikal drenajlarga ega ekanligi ilmiy adabiyotlardagi ma’lumotlar yordamida o‘rganilgan.

Imiya Chaturanika, Babishya Xaniya, Upaka Ratnayake, Krisha Neupanilarning tadqiqotida O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan agrotexnologiyalardan muntazam foydalanish va uning ijobiy tomonlari, mamlakatda suvni tejaydigan sug‘orish amaliyotlari va qishloq xo‘jaligidan foydalanish yo‘llari, turli ob-havo sharoitlari hamda suv bilan ta’minlanganlik holatlarida qo‘llash uchun turli sug‘orish suvlarini boshqarish texnologiyalari masalalari statistik ma’lumotlar va davriy matbuot nashrlaridagi materiallar yordamida muhokama qilingan[15].

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida mahalliy tarixchi, texnik, geograf va iqtisodchi olimlar tomonidan bevosita mavzuga doir nashr qilgan tadqiqotlarda O‘zbekiston Respublikasidagi irrigatsiya-melioratsiya ishlarining bugungi kundagi holati, imkoniyatlari, mavjud yirik suv inshootlari va ularning texnik jihatlari hamda suv resurslaridan oqilona foydalanishi masalalari atroflicha yoritilgan. Xorij olimlari tomonidan nashr qilingan izlanishlarda esa respublikaning ba’zi

[13] Riccardo Mario Cucciolla. Water and Conflict in the Ferghana Valley: Historical Foundations of the Interstate Water Disputes between Kyrgyzstan and Uzbekistan. – Rome: Luiss University Press, 2018. – 160 p.

[14] Dankova R., Burton M., Salman M., Clark AK. & Pek E. Modernizing irrigation in Central Asia: concept and approaches. Directions in Investment. No. 6. – Rome: FAO and The World Bank, 2022. – P.71.

[15] Imiya Chathuranika, Bhabishya Khaniya, Krisha Neupane. Implementation of water-saving agro-technologies and irrigation methods in agriculture of Uzbekistan on a large scale as an urgent issue // Sustainable Water Resources Management.Volume 8 (155). – Switzerland, 2022. – P.37-45.

hududlarida suv manbalarining tanqis bo‘lganligi, o‘tkazilgan irrigatsiya-melioratsiya tadbirlari natijasida hosildorlik ortib borganligi, tizimda ayni paytda dunyo mamlakatlari maqbul tanlovi bo‘lgan tomchilatib sug‘orish usulidan foydalanishning yildan-yilga tobora ommalashib borganligi masalalarigina aks ettirilgan. Shu boisdan ham mazkur muammoga doir maxsus ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Qo‘qon davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbekiston tarixining dolzarb muammolari” mavzusi (№9, Qo‘qon DU IK 2019.30.05) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi 1991–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasidagi irrigatsiya-melioratsiya ishlarining tarixini aynan mavzuga oid birlamchi manbalardagi materiallar, muammoga doir ilmiy adabiyotlar hamda davriy matbuot nashrlarining tahlili ko‘magida yoritib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

1991–2021-yillarda O‘zbekistondagi irrigatsiya-melioratsiya tizimlarining normativ-huquqiy bazasiga asos solinishini bayon qilish;

mamlakat sug‘orish tizimini zamonaviylashtirish yo‘lidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi jarayonlarini tarixiylik nuqtai nazaridan tahlil qilish;

o‘rganilgan yillarda O‘zbekiston irrigatsiya tizimini moliyaviy jihatdan mustahkamlanishi va qo‘llab-quvvatlanishini tadqiq etish;

suv xo‘jaligi tizimini eng so‘nggi zamonaviy moddiy-texnika bilan ta’minlanishi, undagi asosiy jihatlarni ochib berish;

tizimga doir oliy va o‘rta bo‘g‘in irrigator-meliorator kadrlarning tayyorlanishi jarayonlari tarixini atroflicha o‘rganish;

suv xo‘jaligi tizimini jadallashtirishga qaratilgan xalqaro aloqalarning o‘rnatilishi, bu borada loyihalarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishida qo‘lga kiritilgan natijalarni ilmiy jihatdan sarhisob qilish;

respublikada yirik gidroinshootlarning barpo etilishi hamda rekonstruksiya qilinishiga doir tadbirlar o‘tkazilishini ko‘rsatib berish;

tadqiqotning ilmiy xulosalari va natijalari asosida istiqbolda muhim ahamiyatga molik bo‘lgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida 1991–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasida irrigatsiya-melioratsiya ishlari tarixi va undagi islohotlar jarayonlari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti. 1991–2021-yillarda respublika irrigatsiya-melioratsiya ishlarini zamonaviylash borasidagi o‘tkazilgan amaliy sa’y-harakatlar, suv xo‘jaligi va mexanizatsiya sohalarida amalga oshirilgan chora-tadbirlar hamda kuzatilgan muhim o‘zgarishlar bilan bog‘liq tarixiy jarayonlar ishning predmetini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tarixiylik, xronologik, tarixiy tizimlilik, qiyosiy tahlil *(comparative analysis)* hamda og‘zaki tarix *(oral history)* kabi tarixiy usullardan atroflicha foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O‘zbekistonda suv resurslarini boshqarishdagi konseptual va institutsional o‘zgarishlar tarixiy jihatdan tahlilga tortilib, suv xo‘jaligi boshqaruvining an’anaviy ma’muriy-hududiy (viloyat/tuman) tizimidan gidrografik-havza boshqaruv usuliga o‘tkazilganligi hamda sohada ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor mexanizmlarining qaror topganligi, natijada bu islohotlarning agrar sektorda suv resurslaridan oqilona foydalanish samaradorligini oshirishga qo‘shgan hissasi ochib berilgan;

respublikada irrigatsiya-melioratsiya ishlari rivojlanishining xronologiyasi asoslab berilib, istiqlol davrida (1991–2021-yillar) mamlakatda suv xo‘jaligi sohasida kechgan islohotlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uch tarixiy bosqichga ajratilib (1-bosqich: 1991–2002-yillarni o‘z ichiga olib, unda sohadagi huquqiy va institutsional asoslarning shakllanganligi; 2-bosqich: 2003–2013-yillarni qamrab olib, boshqaruvning havza uslubiga o‘tilishi va tejamkor texnologiyalarning kirib kelganligi; 3-bosqich: 2014–2021-yillar davomida sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va tizimni raqamlashtirishga o‘tilishi) tarixiylik jihatidan dalillangan;

sohada o‘tkazilgan tadbirlarga jalb etilgan moliyaviy va xalqaro investitsiyalarning tizimli natijalari tarixiylik aspektida umumlashtirilib, irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini barpo etish hamda ularni qayta ta’mirlashda nafaqat davlat byudjeti, balki nufuzli xalqaro tashkilotlar va xorijiy moliya institutlarining imtiyozli kreditlari hamda grantlari hisobidan amalga oshirilgan yirik loyihalar doirasida zamonaviy asbob-uskunalar tatbiq etilganligi, temir konstruksiyalarning xarid qilinganligi, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanilganligi tizimning zamonaviylashuviga ko‘mak berganligi aniqlangan;

muhandis-gidrotexnik kadrlar tayyorlash va zamonaviy agrotexnologiyalar integratsiyasining tarixiy tajribasi tadqiq etilishi barobarida, 1991–2021-yillar mobaynida oliy va o‘rta bo‘g‘in soha mutaxassislarini tayyorlash tizimi evolyutsiyasi, tegishli o‘quv muassasalari bilan ishlab chiqarish korxonalari (havza boshqarmalari va klasterlar) o‘rtasidagi sheriklik aloqalarining yo‘lga qo‘yilganligi hamda sohada tomchilatib sug‘orish va “Aqlli suv” kabi resurs tejamkor texnologiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi jarayonlari, ularning o‘zaro integratsiyalashuvi va ijobiy natijalari umumlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasida 1991–2021-yillar xronologik chegarasida irrigatsiya-melioratsiyaning rivojlanishi, sug‘orish inshootlarining bunyod etilishi va muntazam foydalanishga kiritilishi, suv obyektlari manbalaridan qishloq xo‘jaligida samarali foydalanishiga doir ilmiy xulosalarga asoslangan holda mamlakatning sug‘orish tarixini yaratishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan umumiy jihatlar aniqlandi;

arxiv manbalarining mavzuga doir ma’lumotlari va nashr qilingan statistik materiallarning tahliliga tayangan holda, respublika irrigatsiya tizimi tarixi hamda undagi o‘tkazilgan muhim islohotlar jarayonlariga daxldor bo‘lgan qator

hujjatlarning atroflicha o‘rganilishi barobarida sohaga doir yangi tarixiy ma’lumotlar ilmiy iste’molga kiritildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda zamonaviy tarix fanida e’tirof etilgan nazariy yondashuv hamda usullarning keng qo‘llanilganligi, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy adabiyotlaridan atroflicha foydalanilganligi, birlamchi manbalar – O‘zbekiston Milliy arxivi, O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi joriy arxivi, mazkur vazirlik huzuridagi Norin-Qoradaryo, Norin-Sirdaryo hamda Sirdaryo-So‘x irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalarining joriy arxivlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivining Farg‘ona viloyat bo‘limi, Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyat davlat arxivlari fondlarida saqlanayotgan hujjatlarning ma’lumotlariga asoslanganligi hamda vaqtli matbuot nashrlarida e’lon qilingan bevosita mavzuga doir ilmiy maqolalardan tarkib topganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning bevosita amaliyotga tatbiq etilganligi hamda ularning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, 1991–2021-yillar davomida O‘zbekiston irrigatsiya-melioratsiya tizimlarida o‘tkazilgan tadbirlarni tarixiylik nuqtai nazaridan taqqoslash va xronologik metodlarga tayangan holda yoritilganligi bois ulardan mazkur masalaga doir metodologik-uslubiy yondashuv va nazariy xulosalarni takomillashtirishda atroflicha foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, olib borilgan dissertatsiya natijasida aniqlangan va bevosita ilmiy iste’molga kiritilgan manbalar o‘rganilgan davrda respublikaning sug‘orilish tarixi hamda irrigatsiya-melioratsiya masalalari bo‘yicha mavjud manbalar bazasini yanada boyitishga hamda mukammallashtirishga, ishdagi faktik va tahliliy xarakterdagi materiallar asosan mavzu tarixshunosligini kengaytirishga xizmat qilganligi bilan xarakterlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. 1991–2021-yillarda O‘zbekistonda irrigatsiya-melioratsiya ishlari tarixi mavzusini tadqiq qilish davomida olingan ilmiy natija va amaliy takliflar asosida:

O‘zbekistonda suv resurslarini boshqarishdagi konseptual va institutsional o‘zgarishlar tarixiy jihatdan tahlilga tortilib, suv xo‘jaligi boshqaruvining an’anaviy ma’muriy-hududiy (viloyat/tuman) tizimidan gidrografik-havza boshqaruv usuliga o‘tkazilganligi hamda sohada ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor mexanizmlarining qaror topganligi, natijada bu islohotlarning agrar sektorda suv resurslaridan oqilona foydalanish samaradorligini oshirishga qo‘shgan hissasiga doir tadqiqot xulosalaridan O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi joriy arxivining “O‘zbekiston gidroinshootlari” deb nomlangan texnik hisobotlarini ilmiy ma’lumotlar bilan shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligining 2026-yil 13-yanvardagi 04/20-145-son ma’lumotnomasi). Taqdim etilgan mazkur natijalar joriy arxivning respublika sug‘orish tizimida suv resurslaridan bugungi kunda maqsadli foydalanish joizligiga doir ma’lumotlar bilan boyitishga ko‘mak bergan;

respublikada irrigatsiya-melioratsiya ishlari rivojlanishining xronologiyasi asoslab berilib, istiqlol davrida (1991–2021-yillar) mamlakatda suv xo‘jaligi

sohasida kechgan islohotlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uch tarixiy bosqichga (1-bosqich: 1991–2002-yillarni o‘z ichiga olib, unda sohadagi huquqiy va institutsional asoslarning shakllanganligi; 2-bosqich: 2003–2013-yillarni qamrab olib, boshqaruvning havza uslubiga o‘tilishi va tejamkor texnologiyalarning kirib kelganligi; 3-bosqich: 2014–2021-yillar davomida sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va tizimni raqamlashtirishga o‘tilishi) ajratilganligi bo‘yicha tadqiqot ilmiy natijalaridan Farg‘ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyining “Mustaqillik yillarida O‘zbekiston” nomli ekspozitsiyasini suv xo‘jaligi tizimi tarixiga doir ma’lumotlar bilan boyitishga xizmat qilgan (O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2025-yil 17-oktabrdagi 04-05/4123-son ma’lumotnomasi). Natijada muzeyga tashrif buyurganlarda mamlakat suv xo‘jaligi modernizatsiyasi tarixi bo‘yicha yangi ma’lumotlar shakllangan;

sohada o‘tkazilgan tadbirlarga jalb etilgan moliyaviy va xalqaro investitsiyalarning tizimli natijalari tarixiylik aspektida umumlashtirilib, irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini barpo etish hamda ularni qayta ta’mirlashda nafaqat davlat byudjeti, balki nufuzli xalqaro tashkilotlar va xorijiy moliya institutlarining imtiyozli kreditlari hamda grantlari hisobidan amalga oshirilgan yirik loyihalar doirasida zamonaviy asbob-uskunalar tatbiq etilganligi, temir konstruksiyalarning xarid qilinganligi, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanilganligi tizimning zamonaviylashuviga ko‘mak berganligiga oid ma’lumotlardan O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi joriy arxivining “O‘zbekiston gidroinshootlari” deb nomlangan texnik hisobotlarini ilmiy ma’lumotlar bilan shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligining 2026-yil 13-yanvardagi 04/20-145-son ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning joriy arxiv hisobotlariga taqdim etilishi aholi barcha qatlamlarida O‘zbekiston suv xo‘jaligi obyektlari bo‘yicha tarixiy ma’lumotlarni chuqur anglashiga yordam bergan;

muhandis-gidrotexnik kadrlar tayyorlash va zamonaviy agrotexnologiyalar integratsiyasining tarixiy tajribasi tadqiq etilishi barobarida, 1991–2021-yillar mobaynida oliy va o‘rta bo‘g‘in soha mutaxassislarini tayyorlash tizimi evolyutsiyasi, tegishli o‘quv muassasalari bilan ishlab chiqarish korxonalari (havza boshqarmalari va klasterlar) o‘rtasidagi sheriklik aloqalarining yo‘lga qo‘yilganligi hamda sohada tomchilatib sug‘orish va “Aqlli suv” kabi resurs tejamkor texnologiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi jarayonlari, ularning o‘zaro integratsiyalashuvi va ijobiy natijalari bo‘yicha ma’lumotlardan Farg‘ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyining “Mustaqillik yillarida O‘zbekiston” nomli ekspozitsiyasini suv xo‘jaligi tizimi tarixiga doir ma’lumotlar bilan shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2025-yil 17-oktabrdagi 04-05/4123-son ma’lumotnomasi). Natijada bu ma’lumotlar suv xo‘jaligi inshootlarining aholi kundalik ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ekiladigan maydonlarni muntazam sug‘orish uchun ko‘mak berganligi bo‘yicha tarixiy bilimlarni mukammallashtirishga asos bo‘lgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy natijalari 11 ta ilmiy konferensiyalarda, jumladan, 6 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 28 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 1 ta o‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 16 ta maqola, jumladan, respublikada 7 ta va 9 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 142 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va o‘rganish zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatib berilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy hamda amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**O‘zbekistonda irrigatsiya-melioratsiya sohasining normativ-huquqiy asoslarini mustahkamlash va takomillashtirish borasidagi sa’y-harakatlar”** deb nomlangan birinchi bobida respublikada ushbu tizim me’yoriy-huquqiy asoslarining takomillashtirilishi, irrigatsiya-melioratsiyani zamonaviylashtirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishiga oid davlat siyosatining mohiyati, dastlabki amaliy qadamlar, yutuqlar va muammolar ilmiy jihatdan tahlil qilindi.

Mamlakat o‘z milliy istiqlolini qo‘lga kiritgandan so‘ng irrigatsiya-melioratsiya* tizimlarida muhim islohotlar o‘tkazildi. Eng avvalo, hukumatning tabiatni himoya qilishga doir amaliyoti va suv resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlari asosan atrof-muhitni aholi turmush darajasini oshirishning muhim omili asnosida saqlash va qayta tiklash bo‘yicha iqtisodiy hamda ekologik siyosatni muvofiqlashtirishga qaratildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlaboq respublikada suv resurslarini isrof qilmaslik va ortiqcha ishlatishni oldini olishga qaratilgan oqilona suv siyosati yuritila boshlandi. Respublikada suv xo‘jaligi sohasidagi davlat boshqaruv organi – O‘zbekiston Suv xo‘jaligi vazirligi hisoblanib, u bu boradagi davlat siyosatini amalga oshirib kelmoqda. Uning faoliyatining tarixiy bosqichlarini tahlil qilsak, 1991-yilda Suv xo‘jaligi va melioratsiya vazirligi tashkil topgan edi, u 1996-yilda Qishloq va suv

* Irrigatsiya [lot. irrigatio – suv qo‘yish; sun’iy sug‘orish] – suvsiz yerlarga suv chiqarish, dalalarni, ekin maydonlarini sug‘orish ishlari; Melioratsiya [lot. melioratio – yaxshilash] – Yerning tabiiy sharoitlarini tubdan yaxshilab, dehqonchilikka moslash va hosildorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar tizimi // Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж.II. Е – М / Таҳрир ҳайъати; Т. Мирзаев (раҳбар) ва бошқ.; – Тошкент: ЎзМЭ., 2006. – Б.226; 578.

xo‘jaligi vazirligiga aylantirildi, 2018-yilning 12-fevralidan bu vazirlik ikkita vazirlikka: Qishloq xo‘jaligi vazirligi va Suv xo‘jaligi vazirligiga ajratildi[16].

Ta’kidlash o‘rinliki, davlatlarning suv xo‘jaligiga doir siyosati esa birinchi o‘rinda ayni paytda taqchil bo‘layotgan suv resurslarini asrab-avaylash va undan tejamli maqsadlarda foydalanish, suv resurslarini doimiy tarzda muhofazaga olish, suv xo‘jaligi majmuini boshqarish samaradorligini asta-sekin orttirib borish, joylardagi mavjud yirik suv inshootlarini rekonstruksiya qilish, suv resurslarini aholining barcha qatlamlari va hududlarga kafolatli ravishda yetkazib berishni yo‘lga qo‘yish ishlariga yo‘naltirildi[17]. Natijada suv resurslaridan samarali va tejamli foydalanish ishlari mamlakatda asta-sekin tobora ommalasha bordi. Ma’lumot o‘rnida aytish kerakki, mamlakat suv xo‘jaligida 4,3 mln. gektar sug‘oriladigan ekin maydonlari va 19,5 mln. gektar suv chiqarilgan yaylovlarni suv bilan ta’minlash uchun umumiy suv sarfi 2500 m³/sek bo‘lgan 75 ta yirik kanallar, umumiy hajmi 18,6 mlrd. m³ bo‘lgan 53 ta suv omborlari hamda 25 ta sel omborlari, 32,4 ming km xo‘jaliklararo va 176,4 ming km xo‘jalik sug‘orish tarmoqlari, 5000 ga yaqin nasos agregatlari o‘rnatilgan 1479 ta doimiy nasos stansiyalari[18] va boshqa sug‘orish inshootlari qurilgan bo‘lib, ulardan ayni paytda ham muntazam ravishda foydalanib kelinmoqda.

Dastlab suv xo‘jaligi sohasini isloh qilinishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1992-yilning 7-aprelidagi 174-son “O‘zbekiston Respublikasida suv omborlari va boshqa suv havzalari, daryolar, magistral kanallar va kollektorlarning, shuningdek, ichimlik suv va maishiy suv ta’minotining, davolash va madaniy sog‘lomlashtirishda ishlatiladigan suv manbalarining suvni muhofaza qilish zonalari haqidagi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorni[19] qabul qilinishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Respublika Prezidentining 1992-yil 18-noyabrdagi PF-497-son “O‘zbekiston Suv xo‘jaligi qurilishi (“O‘zsuvqurilish”) davlat konsernini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoniga[20] muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi qurilishi davlat qo‘mitasi tugatildi va unga voris sifatida Respublika Suv xo‘jaligi qurilishi davlat konserni tashkil qilindi. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasida suv resurslari muhofazasi borasidagi fikrlar bayon qilindi[21]. Asosiy Qonunga monand tarzda muhim qonunlar va me’yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi hamda qabul qilindi. Jumladan, 1992-yilning 9-dekabrida 754-XII-son “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”[22], 1993-yil 6-mayda 837-XII-son “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”[23]gi qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

[16] https://uz.wikipedia.org/wiki/Ozbekiston_Respublikasi_Suv_xojaligi_vazirligi
[17] O‘zbekiston Milliy arxivi (bundan keyin – O‘z MA), M.190-fond, 1-ro‘yxat, 44-yig‘majild, 16-varaq.
[18] https://uz.wikipedia.org/wiki/Suv_xojaligi
[19] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining qarori, 07.04.1992-yildagi 174-son. – URL: https://lex.uz/docs/-731378
[20] Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаши Ахборотномаси, 1993 й., 2-сон, 57-модда.
[21] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Yuridik adabiyotlar publish, 2023. – Б.36.
[22] O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 09.12.1992 yildagi 754-XII-son. – URL: https://lex.uz/docs/-107115
[23] O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 06.05.1993 yildagi 837-XII-son. – URL: https://lex.uz/docs/-12328

O‘zbekiston Respublikasi Melioratsiya va suv xo‘jaligi vazirligining bergan ma’lumotlariga muvofiq, 1995-yilda vazirlik tasarrufidagi tashkilot va korxonalar jamoalari ishlab chiqarish va moliyaviy ko‘rsatkichlarini bajarganliklari bilan mamlakat qishloq xo‘jaligida ko‘zda tutilgan hosilni olinishini ta’minladilar. Respublikaning irrigatsiya suv omborlarida 12610 mln. m³ yoki 1994-yilga nisbatan 917 mln. m³, Andijon suv omborida esa 1800 mln. m³ o‘rniga 1170 m³ yoki 1994-yilga nisbatan 712 mln. m³ kam suv yig‘ildi[24]. Sug‘orish ishlariga – 47,7 mlrd. m³, shu jumladan, vegetatsiya davrida 38,2 mlrd. m³ suv berildi. Aytish lozimki, yirik suv obyektlarida yig‘ilgan suv manbalari, eng avvalo, aholini va sug‘orma maydonlarni muntazam suv bilan ta’minlashga sarflandi.

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining suv tejovchi sug‘orish texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etishlari uchun muhim tadbirlar ishlab chiqildi va bu borada mamlakat Prezidentining 2012-yil 22-oktabrdagi PF-4478-son “O‘zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[25]gi Farmoni muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Unga monand ravishda fermerlik harakatini qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, fermer xo‘jaliklarining yer va suv resurslaridan oqilona hamda tejamkorona foydalanishlarini yo‘lga qo‘yish va uni tobora mustahkamlab borish, ularning moddiy-texnika bazasini kuchaytirish asosiy vazifalar sifatida belgilandi.

Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va hosildorlikni orttirish maqsadida 2013-yil 19-aprelida PF-4533-son “Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2007-yil 29-oktabrdagi PF-3932-sonli Farmoniga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida” Farmoni[26] imzolanib, unga muvofiq irrigatsiya va melioratsiya ishlarini takomillashtirish, meliorativ nasos stansiyalarini barpo etish hamda 2013 – 2017-yillar davomida “O‘zmeliomashlizing” Davlat lizing kompaniyasining “Meliomashlizingservis” sho‘ba korxonasi O‘zbekistonda ishlab chiqarilishi yo‘lga qo‘yilmagan va mamlakat Ijroiya hokimiyati tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxatlar asosida olib kiriladigan tovarlar, melioratsiya texnikasiga, mashina va mexanizmlarga texnik hamda servis xizmati ko‘rsatish uchun xarid qilinadigan ehtiyot qismlar va butlovchi buyumlari uchun boj to‘lovlari to‘la bekor qilindi.

Sug‘orish tizimining eng maqbul – tomchilatib sug‘orish usulini respublika sharoitiga to‘la mos kelishini e’tiborga olgan holda bu tizimni qishloq xo‘jaligiga tatbiq etishga hukumat tomonidan katta ahamiyat berildi. Mamlakatda tomchilatib sug‘orish tizimini joriy qilishni kengaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 19-apreldagi PQ-1958-son “2013 – 2017-yillar davrida sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[27]gi qarori qabul

[24] O‘z MA, M.190-fond, 1-ro‘yxat, 45-yig‘majild, 96-varaq.
[25] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 22.10.2012 yildagi PF-4478-son. – URL: https://lex.uz/docs/-2071938
[26] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni,19.04.2013 yildagi PF-4533-son. – URL: https://lex.uz/docs/-2157687
[27] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 19.04.2013 yildagi PQ-1958-son. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-2157834

qilinib, unga koʻra 2013 – 2017-yillar uchun belgilangan dasturning prognoz koʻrsatkichlarida yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, magistral kanallarni, gidrouzel va suv olish inshootlarini qurish va rekonstruksiya qilish belgilandi[28]. Xullas, mazkur davrda zamonaviy sugʻorish texnika va texnologiyalarini joriy etish boʻyicha respublikada 18,5 ming gektar maydonda tomchilatib sugʻorish tizimi, 18,4 ming gektar yerga egiluvchan quvurlar yordamida sugʻorish tizimi, 16,3 ming gektar maydonda egatlarga plyonka toʻshab sugʻorish usullari joriy etildi va ulardan samarali foydalanib kelindi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi "**Irrigatsiya-melioratsiya tizimlarining moliyalashtirilishi va moddiy-texnika bazasining mustahkamlanishi**" deb nomlanib, irrigatsiya-melioratsiya qurilishining moliyaviy jihatdan qoʻllab-quvvatlanishi, sugʻorish tizimining zamonaviy moddiy-texnika bazasi bilan taʼminlanishi va undagi oʻzgarishlar masalalari tadqiq qilingan.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 26-dekabr 493-f-sonli farmoyishining 5-bandi boʻyicha mamlakatda mablagʻ sarflanib bajarilgan kapital ishlar qoniqarli darajada emas edi. Aynan shu davrda ichki xoʻjalik sugʻorish va zovur tarmoqlarini hamda ulardagi inshootlarni tozalash hamda kapital taʼmirlash ishlari xoʻjaliklar hisobidan amalga oshirildi[29].

Respublikada 1995-yilda esa kapital qurilish tadbirlarida topshiriqdagi 24 000 gektar oʻrniga 24191 (100,8 %) qishloq xoʻjaligida yangi yerlar oʻzlashtirildi, topshiriqdagi 45 000 gektar oʻrniga 48 322 gektar maydonda avvaldan sugʻorilgan yerlar qaytadan tiklandi (107,4 %) va foydalanishga topshirildi. Bunda limit boʻyicha belgilangan 2800 mln. soʻm oʻrniga, amalda 2977,7 mln. soʻm miqdorda kapital mablagʻlar oʻzlashtirildi hamda 2434,3 mln. soʻmlik asosiy fondlar foydalanishga kiritildi[30].

Vazirlikning barcha tarmoqlari boʻyicha 1995-yil 740,5 mln. soʻm miqdorida foyda olindi va rentabellilik darajasi pudrat tashkilotlarida – 17,7 % ni, sanoatda – 30 % ni, avtotransport korxonalarida – 33,7 % ni tashkil qildi. Biroq, baʼzi sugʻorish ishlari mablagʻlar chegaralanganligi sababli toʻla holatda bajarilmadi. Suvning oʻta tanqisligiga qaramasdan ayrim viloyatlarda suvlarni kollektor-zovur tarmoqlariga va pastliklarga oqizib yuborish, sugʻorish maydonlarida miroblarning yoʻqligi, sugʻorishni agrotexnikaviy ishlab chiqarish bilan mujassamlashtirilmagan holda olib borilib, suvdan samarasiz foydalanish hollari roʻy berdi. Misol uchun suvdan foydalanish koeffitsiyenti Jizzax viloyatida 0,93 ni va Sirdaryo viloyatida 0,95 ni tashkil qildi. Tik zovur quduqlarini ishlatishga tayyorgarlik holati 47,1 % ni, sugʻorish quduqlariniki esa 68 % ni tashkil etdi. Shuningdek, xoʻjaliklararo kollektor-zovur tarmoqlarini tozalash rejasi mablagʻlarning chegaralanganligi tufayli 95 % ga (7,8 ming km) bajarilib, ushbu ishlar talabga javob beradigan holatda olib borilmadi. Tizimning tashkilotlari balansida boʻlgan yopiq-yotiq zovurlarni taʼmirlash ishlari limitlangan mablagʻlarning kam ajratilganligi sababli qoniqarsiz (651 km yoki 68,5 % ga) tarzda bajarildi, xolos. Bu boradagi eng past

[28] Азимов Р. Сув хўжалигини ривожлантириш – муҳим омил // Oʻzbekiston qishloq xoʻjaligi. – Toshkent, 2016. – №1. – B.4.
[29] Oʻz MA, M.190-fond, 1-roʻyxat, 42-yigʻmajild, 8-varaq.
[30] Oʻz MA, M.190-fond, 1-roʻyxat, 45-yigʻmajild, 97-varaq.

ko‘rsatkich Jizzax viloyatiga tegishli bo‘lib, u atigi 46,7 % ni tashkil etdi. Yangi yerlarni o‘zlashtirish topshirig‘ini ayrim viloyatlar – Farg‘ona – 58 % ga, Sirdaryo – 52 % ga bajardilar. Eskidan sug‘oriladigan yerlarni qayta tiklash borasidagi vazirlik belgilagan topshiriqni Qashqadaryo viloyati – 86 %, Sirdaryo viloyati – 85 %, Toshkent viloyati – 93 %, Xorazm viloyati – 72 % ga bajardilar. Respublikada valyuta mablag‘larining mavjud emasligi sababli tomchilatib sug‘orish tizimini joriy etish bo‘yicha topshiriq 1370 gektar o‘rniga faqatgina 313 gektarda (22,8 %) ado etildi[31]. 1996-yilda Farg‘ona viloyatida kapital qurilish bo‘yicha suv xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha muhim ishlar amalga oshirildi. Yillik reja 160 mln. so‘m bo‘lib, haqiqatda 115,5 mln. so‘mlik kapital mablag‘ o‘zlashtirildi yoki 72 % ga 58,2 mln. so‘mlik asosiy vositalar ishga tushirildi[32]. Shu bilan birga, ajratilgan mablag‘lar hisobidan viloyat tumanlarida yer tekislash, tuproq va beton ishlari bajarildi.

Istiqlolning dastlabki o‘n yilligida, ya’ni 1991 – 2001-yillarda mamlakatning suv xo‘jaligi tizimiga mablag‘ sarflashi qariyb 5 baravarga qisqardi. Bunga asosiy sabab tizimdagi byudjet mablag‘larining taqchilligi, xo‘jalikdagi nasos stansiyalariga elektr energiya sarflashning ortib borishi va unga ko‘proq mablag‘ sarflash bilan bog‘liq bo‘ldi. Nasos stansiyalari iste’mol qilgan elektr energiyasi uchun to‘lovlar 13,6 % dan 48 % ga o‘sdi[33]. Respublikada ishlatilgan elektr energiyasining qariyb 20 % va Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi byudjetining 70 % nasos stansiyalari va drenajlar uchun foydalanilgan elektr energiyasiga to‘g‘ri keldi.

Suv xo‘jaligi kapital qurilishiga 1991 – 2009-yillar davomida davlat byudjeti hisobidan katta miqdorda mablag‘ ajratilib, umumiy sig‘imi 1319 mln. m³ bo‘lgan 7 ta suv omborlari, 406 dona gidrotexnik inshootlar, umumiy quvvati 367 m³/sek bo‘lgan nasos stansiyalari, 1704 km zovur, 1336 km kanal, 472 dona quduqlar qurildi va rekonstruksiya qilindi, 207 dona dizel nasos stantsiyalari elektrlashtirildi[34]. 2006 – 2011-yillar davomida sho‘rlanmagan maydonlar hajmi 2 109 ming gektardan 2192 ming gektarga kengayib, kuchli sho‘rlangan maydonlar hajmi 163 ming gektardan 126 ming gektarga qisqardi[35].

1991 – 2021-yillarda qishloq xo‘jaligidagi mavjud ekin maydonlarini muntazam sug‘orish maqsadida suv xo‘jaligidagi mavjud gidroinshootlarni ta’mirlash, tozalash va tiklash ishlarini o‘tkazish maqsadida katta hajmda mablag‘ sarflandi hamda bu jarayon tizimli ravishda o‘tkazib borildi. Mazkur sug‘orish tadbirlarining doimiy o‘tkazilib turilishi suv xo‘jaligi tizimining barqarorlashuvi va sug‘orish ishlarining jadallashuviga sezilarli darajada ta’sir qildi.

Sug‘orish tizimini moddiy-texnika bazasini mustahkamlashda suvning hisob-kitobini nazorat qilish maqsadida gidropostlar qurish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 14-fevral 1-sonli bayonidagi suvning hisob-kitobini va undan samarali foydalanishni tashkil qilish bo‘yicha 1-bandi

[31] O‘z MA, M.190-fond, 1-ro‘yxat, 45-yig‘majild, 99-varaq.
[32] Farg‘ona viloyat davlat arxivi, 1220-fond, 1-ro‘yxat, 34-yig‘majild, 177-varaq.
[33] O‘z MA, M.190-fond, 1-ro‘yxat, 45-yig‘majild, 100-varaq.
[34] O‘z MA, M.190-fond, 1-ro‘yxat, 58-yig‘majild, 87-varaq.
[35] O‘z MA, M.190-fond, 1-ro‘yxat, 47-yig‘majild, 118-varaq.

topshirig‘ini joylarda bajarilishi 30 – 31-may kunlari Farg‘ona viloyatida, 18 – 20-iyun kunlari Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlarida, 24 – 26-iyul kunlari Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida o‘rganib chiqildi. Shu yilning 1-iyulidagi holatga ko‘ra, Qashqadaryoda 15,3 mingdan ziyod, Buxoroda esa 26 mingga yaqin gidropostlar qurildi[36]. Bu bo‘yicha boshqa viloyatlarda ham ma’lum ishlar qilinib, jami 42 ming dan ortiq gidropostlar barpo etildi[37].

1991–2009-yillar davomida suv xo‘jaligini yanada rivojlantirish, iste’molchilarni suv bilan kafolatli ta’minlash maqsadida suv xo‘jaligi sohasiga xalqaro moliyaviy institutlarning mablag‘larini jalb etish ishlariga alohida e’tibor qaratilib, 21 ta investitsiya loyihalari doirasida irrigatsiya-melioratsiya tarmoqlarini qurish, rekonstruksiya qilish, uskunalar va mexanizmlarni xarid qilish bo‘yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirildi[38]. Shu davr mobaynida ushbu investitsiya loyihalari asosida 264 ta ekskavator, 51 ta buldozer, 8 ta zemsnaryad, 4 ta gidrotrubina, 14 dona yirik nasos agregatlari olib kelindi[39].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 19-apreldagi PQ-1958-son “2013 – 2017-yillar davrida sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, melioratsiya va irrigatsiya inshootlari tarmog‘ini rivojlantirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish, shu asosda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining barqaror ishlashini ta’minlash, yer unumdorligini oshirish va ekinlar hosildorligini oshirishga muhim e’tibor qaratildi. Ana shu vazifalarni bajarish maqsadida 2013 – 2017-yillarda sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish Davlat dasturi tasdiqlandi, unga ko‘ra sug‘orishning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga e’tibor qaratildi. Xususan, mamlakatda 5,0 ming km dan ortiq kollektor-drenaj tarmoqlari, 35 ta meliorativ nasos stansiyalari, 900 dan ortiq agregatlarni rekonstruksiya qilish va qurish, qariyb 2,4 ming km sug‘orish tarmog‘i va 150 nasos stansiyalari, 83,5 ming km kollektor-drenaj tarmog‘ida ta’mirlash va tiklash ishlari, 126 meliorativ nasos stansiyasi, 3,6 mingdan ortiq vertikal drenaj, 30,0 ming km ga yaqin irrigatsiya tarmoqlari va 2 mingdan ortiq gidropostlar, 150 mingdan ortiq gidrotexnika inshootlari, shuningdek, 836 donadan ortiq yuqori unumli melioratsiya texnikasi sotib olindi[40].

Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi tizimidagi suv xo‘jaligi ekspluatatsiya tashkilotlari (ITHB, ITB, MTB, SO) tomonidan, 2017-yilning 9 oyi davomida 3 731 km uzunlikdagi xo‘jaliklararo sug‘orish tarmoqlari tozalandi va bunda 211 ta ekskavator va boshqa mashina-mexanizmlar jalb qilindi. Bu davrda 3 879 dona gidrotexnik inshootlar hamda 3383 dona gidropostlar ta’mirlandi. SIU va fermer xo‘jaliklarining 70613 km masofadagi xo‘jalik ichki sug‘orish ariqlari mexanizm

[36] O‘z MA, M.190-fond, 2-ro‘yxat, 50-yig‘majild, 22-varaq.
[37] O‘z MA, M.190-fond, 2-ro‘yxat, 50-yig‘majild, 23-varaq.
[38] O‘z MA, M.190-fond, 1-ro‘yxat, 34-yig‘majild, 78-varaq.
[39] O‘z MA, M.190-fond, 1-ro‘yxat, 34-yig‘majild, 79-varaq.
[40] O‘z MA, M.190-fond, 1-ro‘yxat, 54-yig‘majild, 11-varaq.

hamda qo‘l kuchi yordamida tozalandi, 11092 dona gidrotexnik inshootlar va 13976 dona gidropostlar ta’mirlandi, 18595 dona suv olish quduqlari jihozlandi[41].

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida mamlakatdagi sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini rivojlantirish, ularning xavfsiz va barqaror ishlashini ta’minlash, suv resurslaridan oqilona va tejamli foydalanish hamda shu asosda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish barqarorligiga erishish bo‘yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ayniqsa, 2017 – 2018–yillar davomida respublikadagi mavjud 734,9 km. magistral, tumanlararo, xo‘jaliklararo kollektorlarni, 348,3 km. yopiq-yotiq drenaj tizimlarini, 6 ta meliorativ nasos stansiyalarini, 79 ta meliorativ tik quduqlarini, 131 ta meliorativ obyektdagi gidrotexnik inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish ishlari olib borildi[42]. Mazkur irrigatsion va meliorativ tadbirlarning mamlakat miqyosida amalga oshirilishi sohani taraqqiy etishiga ko‘mak berdi.

“Sug‘orish tizimini malakali kadrlar bilan ta’minlash, xalqaro loyihalar va suv inshootlarining bunyod etilishi” deb nomlangan ishning uchinchi bobida irrigatsiya-melioratsiya sohasida oliy va o‘rta bo‘g‘in muhandis-gidrotexnik kadrlarning tayyorlanishi, xalqaro loyihalar orqali sug‘orish tizimining jadallashtirilishi, yirik gidroinshootlarning barpo etilishi hamda rekonstruksiya qilinishi va ularning texnik holatlarini yaxshilanishi masalalari tadqiq etilgan.

Respublikada suv xo‘jaligi tizimiga oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash ishiga Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti (TIMI) ko‘mak (hozirgi “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti) berdi. Ta’kidlash joizki, institutda malakali kadrlar tayyorlash bilan bir qatorda mamlakat qishloq va suv xo‘jaligi sohasini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash ishlariga munosib hissa qo‘shishga alohida e’tibor qaratildi.

Dastavval, 1993-yilda “International House Moscow” va “International House London”ning qo‘llab-quvvatlashi, Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, TIMI va Mirzo Ulug‘bek tumani hokimiyatining ko‘magida TIMI qoshida “International House Tashkent” litseyi tashkil topdi. Akademik litseyda aniq fanlar yo‘nalishi bo‘yicha o‘lkashunoslik-mamlakatshunoslik (Osiyo va Afrika mamlakatlari iqtisodiyoti), qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti, suv xo‘jaligi va sug‘urta ishi bo‘yicha nazariy ta’lim berildi. Bu ilm maskanida 43 nafar pedagog xodim yoshlarga ta’lim-tarbiya berib keldi. Bu yerda mazkur yilda 591 nafar o‘quvchilar ta’lim oldilar, o‘quvchilar uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi[43].

Mamlakatda irrigatsiya-melioratsiya sohalariga taalluqli bo‘lgan oliy va o‘rta ma’lumotli mutaxassis kadrlar tayyorlash sifatini yanada yaxshilash hamda ularning birinchi o‘rinda moddiy manfaatdorligini oshirish hukumat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Respublika Vazirlar Mahkamasining 1996-yilning 26-noyabridagi 419-son “O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi

[41] O‘z MA, M.190-fond, 1-ro‘yxat, 102-yig‘majild, 5-varaq.

[42] Туляков Э., Деҳқонов Ш., Рашидова Ш ва бошқ. Ҳаракатлар стратегияси билан 3 йил: кутилган натижалар, юқори самарадорлик ва юксак марралар. – Тошкент: Konrad Adenauer Shiftung, 2020. – Б.49.

[43] Комилов М. Бўлажак мутахассислар мактаби // O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. – Toshkent, 2009. – №10. – B.6.

faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida”[44]gi qarorida muhim va e’tiborli masala sifatida suv xo‘jaligi tizimiga doir raqobatbardosh mutaxassis kadrlar tayyorlashni kengaytirish, mazkur mutaxassislar faoliyatini joylarda yanada jadallashtirish va boshqa vazifalar belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 28-fevraldagi “Respublikada yangi oliy o‘quv yurtlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni Andijon paxtachilik instituti faoliyatini taraqqiy ettirishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. 1992-yil 15-martda Andijon paxtachilik instituti negizida Andijon qishloq xo‘jaligi instituti tashkil qilindi va unga 4 ta mutaxassislik qo‘shilib, undagi yo‘nalishlar soni 7 taga ko‘paydi[45]. Aynan sohaga doir kadrlar tayyorlashda Agroinjeneriya va gidromelioratsiya fakultetida suv xo‘jaligi va melioratsiya ta’lim yo‘nalishi tashkil qilindi.

Qishloq va suv xo‘jaligi tarmoqlariga raqobatbardosh kadrlar tayyorlash maqsadida Respublika Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 3-sentabrdagi 415-son “Respublika qishloq va suv xo‘jaligi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori[46] muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu hujjatga muvofiq, ikkita vazirlik – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim hamda Qishloq va suv xo‘jaligi vazirliklari zimmasiga bir oy muddat mobaynida tuzilgan Maxsus komissiya tomonidan berilgan takliflarni e’tiborga olgan holda Qishloq va suv xo‘jaligi tarmoqlariga doir bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining klassifikatoriga bir qator o‘zgartirishlar kiritildi.

2011-yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Paxtaarna – Nayman irrigatsiya tizimi boshqarmasida suv xo‘jaligi mutaxassislari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. To‘rtko‘l tumanida “O‘ngqirg‘oq-Paxtaarna”, “Kaltaminor-Bog‘yap”, “Yanbosh”, Beruniy tumanida “Nayman-beshtam”, “Kattagar”, Ellikqal’a tumanida “Qirqqiz-Ellikqal’a”, “Amirobod” bo‘limlarida 312 nafar oliy va o‘rta ma’lumotli muhandis-texniklar faoliyat olib bordilar[47]. Mazkur yilda Toshkent irrigatsiya va melioratsiya institutida Davlat grantlari asosida 19 ta amaliy, 4 ta fundamental, 2 ta innovatsion ilmiy loyiha, 1 ta xalqaro grant, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi hamda boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan tuzilgan qator xo‘jalik shartnomalari bo‘yicha keng ko‘lamli izlanishlar olib borildi[48].

Xalqaro tashkilotlardan – Shveysariya taraqqiyot va hamkorlik agentligi O‘zbekiston va mintaqada suv xo‘jaligi sohasini rivojlantirishda 1998-yildan buyon loyihalarini amalga oshirib kelmoqda. Agentlik tomonidan shu kunga qadar suv resurslarini boshqarish bo‘yicha 5 ta mintaqaviy, 3 ta milliy loyihalar amalga oshirilgan. Suv xo‘jaligi vazirligi va Shveysariya taraqqiyot va hamkorlik agentligi tomonidan 2016 – 2019-yillarda “O‘zbekistonda suv resurslarini boshqarish milliy

[44] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 26.11.1996 yildagi 419-son. – URL: https://lex.uz/docs/-514522

[45] Shamsutdinov R.T., Valixonova G.K. Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti 80 yoshda // Vodiynoma. Yanvar-Mart. – Andijon, 2025. – №1 (38). – B.89.

[46] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 03.09.2004 yildagi 415-son. – URL: https://lex.uz/docs/-356253

[47] Мусаев А. Қорақалпоғистон: аграр соҳа ривож топмоқда // O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. – Toshkent, 2012. – №1. – B.12.

[48] Норбеков О. Чирой очаётган зиё маскани // O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. – Toshkent, 2012. – №1. – B.5.

loyihasi” amalga oshirildi. 2018-yilda suv xo‘jaligi sohasidagi investitsiya loyihalari doirasida jami 44,2 mln. AQSh dollari miqdorida kredit mablag‘lari o‘zlashtirildi.

O‘zbekistonda 2014-yil fevral oyidan boshlab BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP), Global Ekologik Jamg‘arma (GEF) va “Yergeodezkadastr” davlat qo‘mitasi bilan hamkorlikda “O‘zbekistonning tog‘li, yarim cho‘l va cho‘l landshaftlarida sug‘orilmaydigan qurg‘oqchil yerlarni raqobatli ekspluatatsiya qilinishi natijasida tabiiy resurslardan foydalanish bosimini kamaytirish” loyihasi amalga oshirila boshlandi. Loyihada belgilangan tadbirlarni amalga oshirish 5 yilni, ya’ni 2014 – 2018-yillarni o‘z ichiga oldi. Mazkur loyihaning amalga oshirilishi natijasida sug‘orilmaydigan qurg‘oqchil yerlardan foydalanishda uyg‘unlashgan barqaror boshqarishning eng yaxshi usullari qo‘llanilishi oqibatida hududlararo 6000 gektar yaylov hamda 1 000 gektar o‘rmon hududlaridagi o‘simliklar qoplami yaxshilanishiga erishildi[49].

1991–2021-yillar davomida irrigatsiya-melioratsiyani xalqaro moliya tashkilotlarining loyihalarini tizimga tatbiq etgan holda rivojlantirishga muhim e’tibor qaratildi. Sug‘orish tizimini modernizatsiya qilish maqsadida katta miqdorda imtiyozli kreditlar ajratildi. Sohani taraqqiy ettirishda Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA), Shveysariya taraqqiyot va hamkorlik agentligi, Germaniya (GIZ), Yaponiya (JICA) kabi davlatlar tashkilotlarining o‘rni muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur amalga oshirilgan loyihalar orqali tizimni jadallashtirishga erishildi, hududlar bo‘yicha ajratilgan xalqaro kredit mablag‘laridan maqsadli foydalanildi va muddatli loyihalarning bajarilishi natijasida yirik maydonlarning suv ta’minoti yaxshilandi va eng asosiysi sug‘orma yerlarning meliorativ holati yaxshilanishi barobarida hosildorlik hajmi ham yil sayin ortib bordi.

Mustaqillik yillarida barpo etilgan suv inshootlaridan biri – Markaziy Farg‘ona suv ombori bo‘lib, u Farg‘ona vodiysi markazida (Yozyovon tumanida) joylashgan. Mazkur suv ombori 85 ming gektar yerni sug‘orishga mo‘ljallangan bo‘lib, qumli hududda qurilgan noyob suv inshooti hisoblanadi. Mazkur suv obyekti 2013-yilda to‘la foydalanishga topshirildi. Uning to‘g‘oni uzunligi – 25,5 km, to‘g‘on balandligi – 24 km, zilzilaga bardoshliligi – 9 ballga teng. Suv omborining umumiy suv sig‘imi 350 mln. m^3 ni tashkil etadi[50]. Ushbu suv ombori hududlarida ekoturizmni rivojlantirish maqsadida qator maskanlar qurish bo‘yicha amaliy tadbirlar olib borildi. Shu bilan birga, Namangan viloyati suv omborlaridan foydalanish boshqarmasi tarkibida 9 ta suv omborlari va 8 ta sel omborlari mavjud bo‘lib, mazkur obyektlarda istiqlol yillari katta hajmda ishlar amalga oshirildi. 2013-yil holatiga muvofiq Varziq, Jiydalisoy, Chortoq, Yertikan kabi suv omborlarining suv chiqarish inshootlaridan chiqadigan filtratsiya suvlarini inyeksiya usulida to‘xtatish ishlari bajarildi[51]. Mamlakatda yer resurslaridan samarali foydalanish borasida ham ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Bu borada suv omborlari tarmog‘ini kengaytirish hisobidan lalmi yerlarni o‘zlashtirish masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Masalan, 2018 – 2019-yillar

[49] O‘z MA, M.190-fond, 1-ro‘yxat, 58-yig‘majild, 34-varaq.
[50] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivi Farg‘ona viloyat bolimi, 2048-fond, 27-ro‘yxat, 96-yig‘majild, 136-varaq.
[51] O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi Namangan viloyati Suv omborlaridan foydalanish boshqarmasi tarkibidagi suv va sel omborlarida bajarilgan ishlar haqida ma’lumot (2018-yil).

davomida Toshkent viloyatida jami 44 mln. m³ suv yig‘iladigan “Parkentsoy”, “Qizilsoy”, “Toshtepa” suv omborlari qurildi[52]. Shu tariqa Parkent va Ohangaron tumanlarida 5 ming gektar lalmi yerlarni o‘zlashtirish imkoniyati yaratildi. Jizzax viloyatining Forish tumanida “Karaman” suv ombori ishga tushirilgach, 20 ming gektar maydon o‘zlashtirildi. Bundan tashqari, Qashqadaryo viloyatida “Guldara”, “Ayaqchisoy”, Samarqand viloyatida “Bulung‘ur” suv omborlarining barpo etilishi qo‘shimcha ravishda 2 ming gektar ekin maydonlarini o‘zlashtirish va 2 ming 300 gektar yerda suv ta’minotini yaxshilash imkonini berdi[53].

Xullas, tadqiq etilgan yillarda respublikada sug‘orish maydonlarini suv bilan ta’minlash va aholini ichimlik suviga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida suv to‘plovchi obyekt – suv omborlari bunyod etildi va ular foydalanishga topshirildi. Viloyatlardagi mavjud yirik gidroinshootlarning suv manbalaridan bir paytning o‘zida ekin maydonlarini sug‘orish ishlarida va yangi yerlarni o‘zlashtirish tadbirlarida ham foydalanildi. Biroq, suv omborlarini barpo etilishi unga yaqin bo‘lgan hududlardagi ko‘plab irrigatsion maydonlarning zaxlashiga olib keldi, bu esa qishloq xo‘jaligi ekinlaridan past hosil olishga sabab bo‘ldi. Suv xo‘jaligini yaxshilash maqsadida ko‘plab suv omborlarida qayta tiklash va ta’mirlash ishlari olib borildi, ularning texnik holati va suv o‘tkazish qobiliyati yanada yaxshilanishiga erishildi.

XULOSA

O‘zbekiston Respublikasida irrigatsiya-melioratsiya ishlari tarixining 1991–2021-yillar davriy chegarasida tadqiq etilishi natijasida quyidagicha **xulosa**lar olindi:

1. Istiqlolning qo‘lga kiritilishi O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligining muhim tarmog‘i bo‘lgan sug‘orish tizimining rivojlanishi va tubdan yangilanishiga keng yo‘l ochib berdi. Mamlakatda irrigatsiya-melioratsiya ishlarini taraqqiy ettirish va muntazam qo‘llab-quvvatlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Aynan mustaqillik bergan imkoniyat tufayli suv resurslarini asrab-avaylash hamda ulardan oqilona foydalanishga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlar yaratildi va ular amaliyotga joriy qilindi. Suv xo‘jaligi tizimining yuridik maqomi – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi (1992-yil 9-dekabr) va “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi (1993-yil 6-may) qonunlarning ishlab chiqilishi, qabul qilinishi hamda amaliyotga kiritilishi bilan uzviy bog‘liq bo‘ldi. Mazkur tarixiy ahamiyatga molik bo‘lgan huquqiy hujjatlarga binoan suv manbalarining muntazam davlat muhofazasida bo‘lishi va ularning xalq mulki sifatida e’zozlanishi hamda asrab-avaylanishi mustahkamlab qo‘yildi.

2. Mustaqillik bergan imkoniyat tufayli 1991–2021-yillar davomida O‘zbekistonda sug‘orish tizimiga zamonaviy qiyofa berish maqsadida sohaga suv resurslarini tejovchi texnologiyalarni tatbiq etish qo‘llanila boshlandi va bu masala hukumat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bu borada jahon davlatlari qishloq xo‘jaligida eng maqbul deya e’tirof etilgan tomchilatib sug‘orish tizimini mamlakatga keng tatbiq etilishi natijasida suv manbalarini tejashga va ekinlardan yuqori hosil olishga erishildi.

[52] O‘z MA, M.190-fond, 1-ro‘yxat, 67-yig‘majild, 108-varaq.
[53] O‘z MA, M.190-fond, 1-ro‘yxat, 67-yig‘majild, 109-varaq.

Suv xo‘jaligi tizimini modernizatsiya qilishda, eng avvalo, irrigatsiya inshootlari va nasos stansiyalarini qayta ta’mirlashga alohida e’tibor qaratildi hamda tizimni zamonaviylashtirish ishlariga xalqaro moliya tashkilotlaridan Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki va xorijiy mamlakatlar (Xitoy, Yaponiya, Germaniya, Shveysariya)ning investitsiyalari sohaga jalb qilindi. Natijada tizimda takomillashuv jarayonlari kuzatildi, ayniqsa tomchilatib sug‘orish usulidan hududlarda keng qo‘llanilishi suv zaxiralarini ikki marotaba tejash imkoniyatini berdi.

3. Respublikada irrigatsiya-melioratsiya ishlari rivojlanishining xronologiyasi asoslab berilib, istiqlol davrida (1991–2021-yillar) mamlakatda suv xo‘jaligi sohasida kechgan islohotlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uch tarixiy bosqichga (1-bosqich: 1991–2002-yillarni o‘z ichiga olib, unda sohadagi huquqiy va institutsional asoslarning shakllanganligi; 2-bosqich: 2003–2013-yillarni qamrab olib, boshqaruvning havza uslubiga o‘tilishi va tejamkor texnologiyalarning kirib kelganligi; 3-bosqich: 2014–2021-yillar davomida sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va tizimni raqamlashtirishga o‘tilishi) ajratilganligiga doir muhim o‘zgarishlar umumlashtirildi. Harakatlar strategiyasi negizida mavjud irrigatsion-meliorativ obyektlar barpo etildi, ularda tozalash-tiklash va qayta ta’mirlash ishlari bajarildi.

4. O‘rganilgan davrda irrigatsiya-melioratsiyani taraqqiy ettirish maqsadida unga katta miqdorda kapital mablag‘lar sarflandi. Bu mablag‘lar suv omborlari, kanallar barpo etishga, irrigatsion-meliorativ obyektlarni ta’mirlash tadbirlariga sarflandi. Shuningdek, O‘zbekiston sug‘orish tizimida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan mavjud yirik suv xo‘jaligi obyektlari hisoblanmish magistral kanallar, ulkan suv omborlari, mavjud nasos stansiyalari, xo‘jaliklararo kollektorlardan foydalanish, loyiha-qidiruv va sohadagi ilmiy ishlar bilan bog‘liq xarajatlar hamda agrar sektorning operatsiya xarajatlari byudjet mablag‘lari, ya’ni respublika va mahalliy byudjetlarga tegishli mablag‘lar hisobidan bajarildi.

5. 1991–2021-yillar davomida mamlakat irrigatsiya-melioratsiya tizimlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash asosiy masalalardan biriga aylandi. Chunki, sug‘orish va yerga ishlov berish ishlarini mexanizmlarsiz bajarish juda mushkul. Shu sababli istiqlol yillarida suv xo‘jaligini rivojlantirish va isloh qilishga doir qabul qilingan hukumat qarorlariga muvofiq sohani moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, xizmatni o‘tab bo‘lgan va yaroqsiz holga kelib qolgan texnikalarning o‘rniga zamonaviy energiya va resurs tejamkorlarini xarid qilish belgilandi va ulardan muntazam foydalanish yo‘lga qo‘yildi. Shu bilan birga, hukumatning Davlat dasturlari asosida imtiyozli kreditlar ajratish hisobidan suv xo‘jaligiga katta miqdorda mablag‘lar ajratildi va ular orqali tizim eng so‘nggi rusumli texnika va texnologiyalar bilan jihozlandi.

6. O‘zbekiston Respublikasida istiqlolning dastlabki davridanoq oliy va o‘rta ma’lumotli irrigator-meliorator kadrlar tayyorlash ishi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Chunki, mamlakatdagi ekin maydonlarining aksariyati sun’iy sug‘orishga asoslangan bo‘lib, irrigatsion hududlarni sug‘orish va yerlarga ishlov berish suv xo‘jaligi bo‘yicha kadrlarning malakasi va tajribasi bilan bog‘liq. Shu boisdan sohaga doir sifatli kadrlar tayyorlash bo‘yicha hukumatning bir qancha qarorlari qabul qilindi

va ularda muhandis-texnik kadrlar tayyorlash ishini tubdan yaxshilash hamda xalqaro andozalarga mos keluvchi raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasiga jiddiy e’tibor qaratildi. Oliy ma’lumotli suv xo‘jaligi kadrlarini tayyorlash ishiga Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti ko‘maklashdi. Bu o‘quv dargohida respublikaning turli viloyatlaridan kelgan talabalarni mustaqil hayotga va yetuk mutaxassis kadrlar qilib tayyorlashga muhim ahamiyat berildi. O‘rta bo‘g‘in kadrlar tayyorlash mavjud qishloq va suv xo‘jaligi kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda amalga oshirildi.

7. 1991–2021-yillar davomida mamlakatda xalqaro moliya tashkilotlari loyihalari ko‘magida irrigatsiya-melioratsiya tizimini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Xususan, ushbu tizimni takomillashtirish uchun imtiyozli kreditlar ajratildi. Sohani rivojlantirishda Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA), Shveysariya taraqqiyot va hamkorlik agentligi, Germaniya (GIZ), Yaponiya (JICA) kabi davlatlar tashkilotlarining o‘rni muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Loyihalar orqali tizimni jadallashtirishga erishildi, hududlar bo‘yicha ajratilgan xalqaro kredit mablag‘laridan maqsadli foydalanildi va muddatli loyihalarning amalga oshirilishi natijasida yirik maydonlarning suv ta’minoti yaxshilandi va eng asosiysi sug‘orma yerlarning meliorativ holati yaxshilanishi barobarida hosildorlik hajmi ham yil sayin ortib bordi.

8. O‘zbekistonda tadqiq qilingan yillar davomida irrigatsiya maydonlarini sug‘orish hamda aholini toza va sifatli ichimlik suvi bilan doimiy ta’minlash maqsadida yirik gidroinshootlar – suv omborlari qurilib, foydadanishga topshirildi. Mamlakatning ko‘plab hududlaridagi mavjud yirik gidroinshootlar suv manbalaridan bir paytning o‘zida ekin maydonlarini sug‘orishda va o‘zlashtirish ishlarida ham foydalanildi. Biroq, suv omborlarini barpo etilishi unga yaqin bo‘lgan ba’zi hududlardagi ekin maydonlarining zaxlashiga sabab bo‘ldi, bu esa hosildorlik ko‘rsatkichining yil sayin pasayib borishiga ta’sir ko‘rsatdi. Ko‘plab viloyatlardagi suv omborlarida rekonstruksiya ishlari olib borildi, ularning texnik holati va suv o‘tkazish qobiliyati yanada yaxshilandi.

Olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi **taklif va tavsiya**lar ilgari surildi:

1. Aholi barcha qatlamlarini dehqonchilik madaniyati va irrigatsiya-melioratsiya tizimlari tarixidan to‘la xabardor qilish maqsadida “O‘zbekistonda irrigatsiya-melioratsiya ishlari tarixi” nomli monografiyani yaratish va nashr etish;

2. Irrigatsiya-melioratsiya tizimining moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash maqsadida sohaga xorijiy investitsiyalar jalb qilinishini yil sayin orttirib borish;

3. Sug‘orish tizimida xorijiy tajribalarning tatbiq etilishi barobarida resurstejamkor texnologiyalardan muntazam foydalanishni yo‘lga qo‘yish;

4. O‘zbekistonning irrigatsiya-melioratsiya tizimlarida klasterlarni yaratish va ularni mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.Tar.07.01.
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
АНДИЖАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
ИМЕНИ ЗАХИРИДДИНА МУХАММАДА БАБУРА**

КОКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ШОМУРОДОВ ШАРОФИДДИН ШУКУРЖОН УГЛИ

ИСТОРИЯ ИРРИГАЦИОННЫХ И МЕЛИОРАТИВНЫХ РАБОТ В УЗБЕКИСТАНЕ (1991-2021 гг.)

07.00.01 – История Узбекистана

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Андижан – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан за № B2019.3PhD/Tar553.

Диссертация выполнена в Кокандском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на сайте Ученого совета (http://kengash.adu.uz/tarix/) и на Информационно–образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz)

Научный руководитель:	**Комилов Ойбек Камилович** доктор исторических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Расулов Бахтиёр Махмуджонович** доктор исторических наук, профессор
	Бабаджанова Дилором Бабаджановна доктор исторических наук, профессор
Ведущая организация:	**Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека**

Защита диссертации состоится «28» 11 2026 года в 14:00 на заседании Ученого совета по присуждению ученых степеней DSc.03/2025.27.12.Tar.07.01. при Андижанском государственном университете имени Захириддина Мухаммада Бабура. (Адрес: 170100, город Андижан, улица Университетская, дом 129, Андижанский государственный университет, корпус исторического факультета, 1–этаж, аудитория 108. Тел.: (0374) 225–73–21; факс: (0374) 225–73–21; e–mail: agsu_info@edu.uz_ Андижанский государственный университет).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно–ресурсном центре Андижанского государственного университета имени Захириддина Мухаммада Бабура (зарегистрирована под № 2658 A). (Адрес:170100, город Андижан, улица Университетская, дом 129, Андижанский государственный университет, здание ИРЦ). Тел.: (0374) 225–88–30.

Автореферат диссертации разослан «04» 11 2026 года.
(протокол реестра рассылки № 53 от «03» 11 2026 г.).

Р.Т. Шамсутдинов
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, д.и.н., профессор

М.О.Алихожиев
Ученый секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, к.и.н., доцент

С.А.Хошимов
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, д.и.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD)

Актуальность и необходимость темы диссертации. В XXI веке, характеризующемся стремительным развитием современных технологий, всё более актуальными становятся вопросы совершенствования мирового водного хозяйства, оснащения его новейшими техническими средствами и внедрения инновационных технологий, направленных на предотвращение нарастающего дефицита водных ресурсов. В условиях усиливающихся процессов глобализации рациональное и целевое использование объектов ирригационно-мелиоративной инфраструктуры приобретает особую значимость как одно из важнейших направлений предупреждения дефицита питьевой воды и обеспечения эффективного управления водными ресурсами во многих странах мира.

В настоящее время во многих научно-исследовательских институтах и специализированных центрах мира, в частности в Управлении водного хозяйства (Department of Water Management, DWM)[1] и Центре водных технологий (Water Technology Centre, WTC)[2], проводятся масштабные научные исследования, направленные на обеспечение устойчивого использования водных ресурсов и совершенствование системы водного хозяйства. Особое внимание уделяется вопросам сохранения и регулярной очистки водных источников, повышения эффективности управления и цифровизации водного хозяйства, улучшения качества воды и её влияния на здоровье населения и состояние окружающей среды, технологической модернизации и интенсификации ирригационных систем, а также рационального и ресурсосберегающего использования водных ресурсов.

В условиях независимости Республики Узбекистан дальнейшее развитие системы водного хозяйства, совершенствование её организационно-экономических механизмов, а также укрепление финансового обеспечения и материально-технической базы были определены в качестве одного из приоритетных направлений государственной политики. Президент Республики Шавкат Мирзиёев, рассматривая вопросы модернизации водного хозяйства, особо подчеркнул необходимость уделения пристального внимания следующим аспектам: «В процессе модернизации отрасли необходимо поддерживать за счёт средств международных проектных институтов перспективные проекты, направленные на совершенствование управления водными ресурсами, рациональное использование воды, улучшение технического состояния гидротехнических сооружений и обеспечение их безопасности». В этой связи в 1991–2021 гг. в Узбекистан в целях развития ирригационно-мелиоративной системы за счёт средств местного бюджета и авторитетных международных организаций были выделены значительные объёмы капитальных вложений, что позволило внедрить в систему современные технологии водосбережения, а также

[1] Directorate of Water Management (DWM). – URL: https://tlsgroup.co.in/dwm/index.html
[2] The Water Technology Centre (WTC). – URL: https://tnau.ac.in/site/wtc/about-directorate/

энергоэффективные решения при эксплуатации насосных станций[3]. В этой связи изучение указанных ирригационных мероприятий в качестве самостоятельного научного исследования с позиций принципа историзма в настоящее время приобретает важное научно-практическое значение.

Данное исследование в определённой степени служит выполнению задач, закреплённых в действующих нормативно-правовых актах в сфере водного хозяйства Узбекистан, в том числе в Указах Президента Шавкат Мирзиёев от 16 ноября 2017 года №УП-5241 «О мерах по кардинальному совершенствованию платежной дисциплины в сфере оказания услуг водоснабжения и водоотведения», от 12 февраля 2018 года №УП -5330 «Об организационных мерах по коренному совершенствованию системы государственного управления сельским и водным хозяйством», а также в постановлениях Президента от 17 апреля 2018 года № ПП-3672 «О мерах по организации деятельности министерства водного хозяйства Республики Узбекистан» и от 6 апреля 2021 года №ПП-5055 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Министерства водного хозяйства Республики Узбекистан».

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления I. «Формирование системы инновационных идей и механизмов их реализации в процессе социального, правового, экономического, культурного и духовно-просветительского развития информационного общества и демократического государства» в Узбекистан.

Степень изученности темы. Все проведённые исследования, посвящённые теме диссертации, целесообразно подразделить на две основные группы:

1. исследования, посвящённые развитию ирригационной системы Узбекистан в годы независимости;

2. научные труды зарубежных учёных, опубликованные по данной проблематике.

Литературу, относящуюся к первой группе, составляют научные труды историков, инженеров, географов и экономистов, посвящённые данной тематике; в этой связи представляется целесообразным их междисциплинарный анализ. В условиях независимости в исследованиях историков – А. Раззакова, К. Насритдинова, О. Комилова, Г. Хайдарова, У. Ахмедовой, Ж. Олимова, Б. Исхакова, Д. Норкузиева, Г.Рахмонова[4] – с

[3] Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: O‘zbekiston, 2021. – Б.166.

[4]Раззоқов А.А. Сув ва ҳаёт. – Тошкент: Мехнат, 1991. – 152 б.; Тот же автор. Мелиорация: миш-миш ва ҳақиқат // Ҳаёт ва иқтисод. – Тошкент, 1992. – №1. – Б.28-30; Тот же автор. Ўзбекистон пахтачилиги тарихи: (Ўтмиш ва ҳозир). – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – 304 б.; Насритдинов Қ.М. Наманган воҳасининг суғорилиши тарихидан // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – Тошкент, 2000. – №3. – Б.33-37; Комилов О., Хайдаров Ғ. Ўзбекистонда суғориш тизими модернизацияси тарихидан // Илмий хабарнома. – Андижон, 2020. – №1 (45). – Б.49-58; Akhmedova U.M. Agrarian Reforms In The Field Of Agriculture In Uzbekistan. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research. – USA, 2020. 2(11). – P.72-75; Олимов Ж.Б. Ўзбекистонда ўрмон хўжалигининг шаклланиши ва ривожланиши тарихи (1917 – 2020 йиллар): Тарих фан. фалс. док (PhD). ... дисс. автореф. – Фарғона, 2022. – 50 б.; Isxakov B.B. Farg‘ona vodiysi o‘zbeklarining an’anaviy ekologik madaniyati (tarixiy-etnologik tadqiqot): Tarix fan. fals. dok (PhD). ... diss. avtoref. – Farg‘ona,

позиций принципа историзма проанализированы история системы водного хозяйства Узбекистан, предпринимаемые на местах меры по её модернизации, традиции почитания воды как священного элемента, восходящие к прошлым эпохам, постепенный рост объёмов финансирования развития ирригационно-мелиоративной сферы, эффективное использование водосберегающих агротехнологий в сельском хозяйстве страны и их преимущественно положительные результаты, реконструкция крупных водохозяйственных сооружений, их пропускная способность и техническое состояние, внедрение зарубежного опыта в системе, изменения в подготовке кадров ирригаторов и мелиораторов, ежегодный рост численности специалистов, а также принятые правительственные решения и указы, направленные на развитие отрасли.

В исследованиях представителей технических наук – Ф. Шоххужаева, Р. Хусанова, И. Рафикова, З. Артукметова, М. Хамидова, А. Маматалиева, О. Шерматова – на основе научной литературы и статистических материалов проанализированы деятельность организаций водного хозяйства Узбекистан в годы независимости, техническое состояние водохозяйственных объектов, этапы исторического развития ирригационно-мелиоративных работ, мероприятия по орошению и обработке земель, осуществляемые ассоциациями водопользователей, и их результаты, строительство крупных гидротехнических сооружений для обеспечения регулярного орошения сельскохозяйственных угодий, рациональное и экономное использование земельных и водных ресурсов в сельском хозяйстве как наиболее оптимальный подход, роль эффективного использования водных ресурсов в обеспечении продовольственной безопасности, а также взаимосвязь повышения урожайности в хлопководстве с проведением ирригационных и агротехнических мероприятий[5].

В трудах географов – Э. Солиева, А. Баратова, Ю. Ахмадалиева[6] – на основе исторических источников и научной литературы раскрыты вопросы

2023. – 54 b.; Norkuziyev D.R. Farg‘ona vodiysi ekologiyasi holati va uning ijtimoiy muammolari (1991 – 2021-yillar): Tarix fan. fals. dok (PhD). ... diss. avtoref. – Farg‘ona, 2023. – 52 b.; Raxmonov G‘.A. Farg‘ona vodiysida suv xo‘jaligi tizimining modernizatsiyasi tarixi (1991–2018-yillar): Tarix fan. fals. dok (PhD). ... diss. avtoref. – Farg‘ona, 2026. – 62 b.

[5] Шоххўжаев Ф.З. Мелиорация фондларида мулкдорлик // Иқтисод ва ҳисобот. – Тошкент, 1998. – №1. – Б.30-31; Тот же автор. Аграр ислоҳотнинг муҳим бўғини // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. – Тошкент, 2002. – №5. – Б.31-32; Тот же автор. Сувдан фойдаланувчилар уюшмалари томонидан сув ресурсларидан фойдаланиш, суғориш ишларини ташкил этиш ва кўрсатилган хизматлар учун молиявий ҳужжатларни расмийлаштириш бўйича қўлланма. – Андижон, 2006. – 19 б.; Тот же автор. Зилол сувдай пок бўлинг. – Андижон: Andijon nashriyot-matbaa, 2021. – 240 б.; Хусанов Р., Рафиков И. Қишлоқ хўжалигини ривожлантириш. Андижон тажрибаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2000. – 48 б.; Артукметов З.А. Сув ресурслари ва сувдан фойдаланиш. – Тошкент: Университет, 2007. – 146 б.; Xamidov M.X., Mamataliyev A. B. Irrigatsiya va melioratsiya. – Toshkent: Book media plus, 2019. – 211 b.; Шерматов О.З. Қишлоқ хўжалигида ер ва сувдан самарали фойдаланишнинг озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашдаги ўрни ва аҳамияти // Agro ilm. – Тошкент, 2020. – №1. – Б.97-98.

[6] Солиев Э.А. Шимолий Фарғона дарёлари сув ресурсларини баҳолаш // НамДУ илмий ахбороти. – Наманган, 2005. – №2. – Б.34-37; Тот же автор. Иқлим исиши даврида Фарғона водийси сув ресурсларини ўрганишнинг долзарблиги // Ўзбекистон география жамияти ахборотномаси. – Тошкент, 2006. – №27. – Б.56-57; Тот же автор. Iqlim o‘zgarishining Farg‘ona vodiysi suv resurslariga ta’siri. – Namangan: Namangan, 2021. – 144 b.; Баратов А.С. Наманган вилоятида сув хўжалигини ташкил этиш ва унинг самарадорлигини ошириш масалалари: География фан. номз. … дисс. автореф. – Наманган, 2007. – 26 б.; Тот же автор.

использования земельно-водных ресурсов в Узбекистан, взаимного влияния климатических изменений на водные ресурсы, современного состояния водных ресурсов Ферганская долина и рациональных аспектов их использования, особенностей водного хозяйства Наманганская область и факторов его развития, проведённых в системе реформ, межгосударственных направлений эффективного использования водных ресурсов и их ключевых характеристик. Кроме того, показано, что в сельском хозяйстве широкое распространение получило возделывание маловодотребовательных зерновых культур, в частности сорго, в различных регионах, что имеет важное значение для предупреждения дефицита водных ресурсов.

В исследованиях экономистов – И. Ахмедова, А. Пренова, А. Гофурова, Р. Бегматова, О. Гофурова, Ш. Муминова, А. Салиллаева, Т. Исмаилова – рассмотрены вопросы эффективного использования земельно-водных ресурсов в Узбекистан и их экономические аспекты, показано, что по мере увеличения числа водопользователей в стране система водопользования становится всё более сложной, обоснована необходимость совершенствования управления водными ресурсами на бассейновом уровне, внедрения ресурсосберегающих технологий и рыночных механизмов водопользования. В работах также освещены вопросы функционирования крупных ирригационных сооружений республики, история оросительной системы Ферганская долина, строительство Большой Ферганский канал, проблемы предупреждения современного дефицита водных ресурсов в регионе, пути и меры их решения на международном уровне, а также представлены научно обоснованные практические рекомендации по эффективному использованию водных ресурсов страны[7].

